

AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIM ISHLARINI TASHKIL ETISHNING SHAKL VA METODLARI

O'rolova Ozoda Bo'ribayevna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti akademik litseyi o'qituvchisi

Email: ourolova83@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada akademik litsey o'quvchilarining mustaqil ta'lim faoliyatini samarali va tizimli tashkil etishning metodik va pedagogik asoslari nazariy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotlarda mustaqil ishlar va turlarining tasnifi, akademik litsey o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda mustaqil ishning o'rni va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish usullari tahlil qilinadi. Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifasi nafaqat tayyor bilimlarni berish, balki o'quvchilarni mustaqil bilim olishga o'rgatishdan iboratligi asoslangan. Akademik litsey oliy ta'limga tayyorlovchi oraliq bo'g'in bo'lganligi sababli, ushbu maqolada litsey o'quvchilarida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish usullari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'lim, akademik litsey, individual yondashuv, keystadi, loyihalashtirish usuli, kognitiv ko'nikmalar.

ФОРМЫ И МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЕВ

Аннотация. В данной статье теоретически освещены методические и педагогические основы эффективной и систематической организации самостоятельной учебной деятельности учащихся академических лицеев. В исследовании анализируются классификация самостоятельных работ и их видов, роль самостоятельной работы в развитии креативного мышления учащихся, а также методы использования современных образовательных технологий. Обосновано, что основной задачей современной системы образования является не только предоставление готовых знаний, но и обучение учащихся навыкам самостоятельного поиска и освоения знаний. Поскольку академический лицей является промежуточным звеном, подготавливающим к высшему образованию, в статье представлены методы формирования навыков самостоятельной работы у учащихся лицеев.

Ключевые слова: Самостоятельное образование, академический лицей, индивидуальный подход, кейс-стади, метод проектирования, когнитивные навыки.

FORMS AND METHODS OF ORGANIZING INDEPENDENT LEARNING ACTIVITIES FOR ACADEMIC LYCEUM STUDENTS

Abstract. This article theoretically examines the methodological and pedagogical foundations for the effective and systematic organization of independent learning activities among academic lyceum students. The research analyzes the classification of independent work and its types, the role of independent assignments in developing students' creative thinking, and the application of modern educational technologies. It is argued that the primary objective of the contemporary education system is not merely the delivery of predefined knowledge, but rather equipping students with the skills for autonomous knowledge acquisition. Given that academic lyceums serve as an intermediary stage preparing students for higher education, this article outlines specific strategies for fostering independent work skills within this cohort.

Keywords: Independent education, academic lyceum, individual approach, case-study, project method, cognitive skills.

Dastlab mustaqil ta'lim tushunchasini keltirib o'tamiz.

Mustaqil ta'lim - bu o'quvchining tizimli ravishda ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, o'qituvchi maslahati va ko'rsatmasi bilan, uning bevosita ishtirokisiz amalga oshiradigan bilim olish faoliyatidir.

Akademik litseylarda mustaqil ta'lim ishlarini tashkil etish shakllari. Akademik litseylarda mustaqil ishlar quyidagi ikki asosiy bosqichda tashkil etiladi:

1. Auditoriya mashg'ulotlaridagi mustaqil ishlar: Mustaqil ta'limning bu bosqichida dars o'tilishi davomida yangi o'tilgan mavzuni mustahkamlash, unga doir masalalar yechish yoki adabiyotlar bilan ishlash jarayonida amalga oshiriladi.

2. Auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar: Mustaqil ishlarni auditoriyadan tashqari bajarish uyga vazifalar, referatlar, ijodiy loyihalar, olimpiada masalalari va ilmiy to'garaklardagi izlanishlarni o'z ichiga oladi.

Samarali metodlar va texnologiyalar. Akademik litseyda o'quvchilarning mustaqil ta'lim bilan shug'ullanishlari faolligini oshirish maqsadida quyidagi usullardan foydalanishni tavsiya etish mumkin:

1. Project-based learning (Loyiha usuli): bu usulda mustaqil ta'lim topshiriqlari o'quvchiga muayyan mavzudagi muammoni hal qilish maqsadida topshiriladi. Masalan, "Fizikik muammolar va ularning yechish usullari" mavzusida kichik tadqiqot ishlarini o'tkazish mumkin. Bu usul akademik litsey o'quvchilarida dastlab ma'lumot qidirish, keyinchalik esa to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish va shu tahlillar asosida xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi.

2. Flipped Classroom (To'ntarilgan sinf): bu usulda nazariy materiallar (masalan: video-ma'ruza yoki matn) fan o'qituvchisi tomonidan o'quvchiga uyga vazifa sifatida beriladi. Dars davomida esa faqat savol-javob va darsning amaliy tahlili qiziqarli tarzda o'tkaziladi.

3. Keys-stadi (Muammoli vaziyat): ushbu usul hozirgi kunda keng tarqalgan usullardan biri bo'lib, bunda o'qituvchi tomonidan o'quvchiga fan sohasiga tegishli biror hayotiy muammo beriladi va o'quvchi bu muammoni nazariy bilimlardan

foydalangan holda ushbu muammoli vaziyatdan chiqish yo'lini izlab topishi talab etiladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchining ijodkorlik qobiliyatini oshiradi.

Mustaqil ta'limda o'qituvchining roli va uslubiy tavsiyalar. mustaqil ishni tashkil etishda hozirgi kunda fan o'qituvchisi nafaqat axborot yetkazuvchi, balki fasilitator (ko'makchi) vazifasini ham bajarishi lozim. Akademik litsey o'quvchilarining mustaqil ta'limni bajarish jarayonni quyidagi bosqichlarda amalga oshirsa albatta samarali bo'ladi:

1. Tayyorgarlik bosqichi: Bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarga mustaqil ta'lim topshiriqlarini berish jaratonida topshiriqning aniq maqsadi va mezonlarini aniq va soda ko'rinishida tushuntirishi lozim.

2. Amalga oshirish bosqichi: bu bosqichda fan o'qituvchisi o'quvchiga topshiriq bergandan so'ng o'quvchining mustaqil ta'limni bajarishini masofadan nazorat qilishi va zarur holatlarda unga yo'nalish va tavsiyalar berishi kerak.

3. Tahlil va baholash: bu bosqich eng muhimi bo'lib, bunda o'qituvchi faqatgina o'quvchining natijasini emas, balki o'quvchining mustaqil ta'limni bajarish usullarini va uning izlanish jarayonini ham baholashi lozim.

Shunday qilib akademik litseylarda mustaqil ta'lim ishlarini tizimli tashkil etish o'quvchilarning oliy o'quv yurtlaridagi murakkab o'quv jarayoniga moslashishini osonlashtiradi. Mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda o'quvchi tomonidan to'g'ri tanlangan usullar o'quvchining kognitiv faolligini oshirib, ularni kelajakda raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishiga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etish tartibi" to'g'risidagi qarori.
2. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". Darslik. T.: "Iste'dod", 2010.
3. Ziyomammedov B. "Pedagogik texnologiya - zamonaviy o'zbek modeli". Darslik - T.: 2008.
4. Hattie, J. "Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement". Routledge, 2008.
5. O'.Quljonov, Q.Ostonov, O'.O'rolova. Raqamli transformatsiya sharoitida akademik litsey o'quvchilarining mustaqil ta'lim ishlarini tashkil etishning nazariy asoslari. Pedagogik mahorat jurnali 2025-yil 12-son, 217-225 betlar. Buxoro davlat universiteti.